


74. Uzunlik birliklari va ularning bog'liqligi


Yondosh mavzu:
baliq ovi.

Kilometr, metr, detsimetr,
santimetr, millimetr.



1. Jasur otasi bilan baliq oviga otlandi. Aniqlang:

a) kimning qarmog'i uzun va qancha uzun?



b) kimning termosini baland va qancha baland?



Jasurniki:
19 cm 9 mm + 3 cm 9 mm



Otasiniki:
41 cm 1 mm - 14 cm 8 mm

d) Kimning rukzagi og'ir va qancha og'ir?



Jasurniki:
4 kg 267 g + 3 kg 578 g




Otasiniki:
18 kg 400 g - 8 kg 986 g

Qiymatni bir o'lchov birligidan boshqasiga o'tkazish uchun qoidani eslab qolish kerak:

a) katta birlikdan kichik birlikka o'tishda kerakli qiymatga ko'paytiriladi;

b) kichik birlikdan katta birlikka o'tishda esa kerakli qiymatga bo'linadi.



74. Uzunlik birliklari va ularning bog'liqligi



2. Ifodalang:

a) millimetrlarda:

3 cm 2 cm 8 mm 5 m 4 dm 3 mm

b) santimetrlarda:

7 dm 3 m 9 dm 2 sm 470 mm 3 km

d) detsimetrlarda:

2 m 3 m 1 dm 4 km 1 300 mm

e) kilometrlarda:

8000 m 30 000 dm 700 000 cm 23 000 m



3. Ifodalar natijalarini eng kichik o'lchov birliklariga o'tkazing. To'g'ri qiymatlarga mos keladigan harflarni to'plang. Bu predmetlar nima deb ataladi? Ular nima uchun kerak?

a) 1 dm 3 cm 4 mm + 5 dm 8 cm 6 mm

QAL	QA	BL
620 mm	619 mm	720 mm

b) 8 m 7 cm – 23 dm 4 cm


ES	RM	QOV
573 cm	636 cm	843 cm

d) (5 km 329 m – 4 km 48 m) : 3

OQ	NA	UCH
283 m	427 m	1 627 m



4. Sxema bo'yicha masala o'ylab toping va uni yeching.



74. Uzunlik birliklari va ularning bog'liqligi



5. Kecha uch keksa baliqchi 78 ta baliq tutib, o'zaro teng bo'lib olishdi. Ikki yosh baliqchi bugun 54 ta baliq tutib, ular ham o'zaro teng bo'lib olishdi. Qaysi baliqchi ko'proq baliq oldi: keksa baliqchimi yoki yosh baliqchimi?




6. Baliqchiga qarmog'ini yig'ishga yordam bering. Ifodalar yozing va ularni hisoblang.

a) Dasta qarmoqning asosiy qismi. Baliqchi uni har birining uzunligi 40 cm bo'lgan 6 ta naychadan yasadi. Agar yig'ish paytida uning uzunligi naychalarning umumiy uzunligidan 25 cm qisqa bo'lsa, dasta uzunligini toping.

b) Baliq ovlash leskasining butun uzunligi 10 m. Uning bir qismi g'altakka o'ralgan, 2 m 10 cm uzunlikdagi qismi qarmoq bo'ylab cho'zilgan, qolgan qismi qarmoqdan 86 cm pastga tushgan. G'altakka o'ralgan leska qismining uzunligi qancha?

d) Qalqovuch ilmoqdan 38 cm masofada leskaga o'rnatilgan. Ilmoqdan 168 mm masofada leskaga cho'ktirgich bog'langan. Qalqovuch bilan cho'ktirgich orasidagi leska uzunligi qancha?



7. Baliqchi 15 ta baliq tutdi. U tutgan baliqlarini miqdorlari har xil bo'lgan 5 ta to'pga ajratdi. Har bir to'pda nechta baliq bor?



8. Eng kichik o'lchov birligiga o'tkazib hisoblang.

$$(3 \text{ km } 282 \text{ m} + 6 \text{ km } 126 \text{ m}) : 12 - 234 \text{ m } 7 \text{ dm}$$

$$4 \cdot (8 \text{ m } 6 \text{ dm } 2 \text{ cm} - 2 \text{ m } 17 \text{ cm}) + 24 \text{ dm } 1 \text{ cm}$$



9. Baliqchi birinchi kun 5 kg 230 g baliq ovladi, bu ikkinchi kundagiga nisbatan 2 marta, uchinchi kundagiga nisbatan esa 1 kg 105 g ko'p. Baliqchi uch kunda jami necha kilogramm baliq ovlagan?